



SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI

Hujamuradov Abrorbek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009 0000 9548 4631

khsarvarkhoja@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada soliq ma'murchiligidagi xalqaro tajriba asosan rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning soliq ma'murchiligining tashkil etilish shakllari hamda ushbu davlatlarda soliq ma'murchiligi mexanizmining davlat byudjeti va iqtisodiyot rivojiga ta'sir etish omillariga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari maqolada mamlakatimiz byudjet tizimini va iqtisodiyotini yanada takomillashtirish va yuqori bosqichga olib chiqishda rivojlangan davlatlarning soliq ma'murchiligidagi tajribalarni qo'llash bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: soliq ma'murchiligi, soliq xavfini boshqarish, soliq auditi.

ВОЗМОЖНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ МЕХАНИЗМА НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ

Худжамурадов Аброрбек

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье рассматривается международный опыт налогового администрирования, в частности, формы организации налогового администрирования в развитых и развивающихся странах, а также факторы, влияющие на государственный бюджет и экономическое развитие в этих странах, а также механизмы налогового администрирования. Кроме того, в статье разрабатываются научные предложения и практические рекомендации по применению опыта налогового администрирования развитых стран для дальнейшего совершенствования и вывода бюджетной системы и экономики нашей страны на более высокий уровень.

Ключевые слова: налоговое администрирование, управление налоговыми рисками, налоговый аудит.

POSSIBILITIES OF APPLICATION OF INTERNATIONAL EXPERIENCES IN IMPROVING THE TAX ADMINISTRATION MECHANISM

Khujamuradov Abrorbek

Tashkent State University of Economics

Abstract. The article primarily focuses on international practices in tax administration, particularly on the organizational forms of tax administration in developed and developing countries, as well as the factors influencing the impact of tax administration mechanisms on the state budget and economic development in these countries. In addition, the article presents scientific proposals and practical recommendations on applying the experiences of developed countries in tax administration to further improve and advance our country's budget system and economy to a higher level.

Keywords: tax administration, tax risk management, tax audit.

Kirish.

Soliq ma'murchiligi bu davlatning iqtisodiy tizimini ishlashini hamda mamlakat iqtisodiyotini tartibga soluvchi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. davlatchilik tashkil etilishi bilanoq soliqlar ham tashkil bo'lgan deb bimalol ayta olamiz balki undan oldinroq ham soliqlarning boshqa ko'rinishlari namoyon bo'lgan. Shunday ekan har bir mamlakatning rivoj topishi va ushbu tendensiyaning barqaror davom etishi uchun soliq tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilishi juda muhim hisoblanadi.

Soliq ma'muriyatchiligi – bu davlatning moliyaviy natijalarini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan, moliyaviy siyosatning samarali va tizimli olib borilishini ta'minlaydigan vositadir.

Budjetning daromad qismini rejalashtirish, soliq tushumlari hajmini to'g'ri bashorat qilish, soliqlarning to'g'ri yig'ilishini nazorat qilish imkonini beruvchi soliq ma'murchiligi turli darajadagi budjetlar taqchilligini oldindan bashorat qila oladi. Bularning barchasi davlatning moliyaviy siyosati to'g'ri va samarali yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi.

Butun davlat uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lganligi sababli soliq ma'muriyatchiligi doimiy ravishda takomillashtirilishini talab qiladi. Zero, soliqqa tortish tizimi qanchalik sodda bo'lsa, soliq tushumlari shunchalik samarali bo'ladi va soliq sohasida yuzaga keladigan huquqbuzarliklar shunchalik kam bo'ladi. O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish zarurati soliq qonunchiligini takomillashtirish, soliq tizimi talablariga rioya etish, soliqlarni nazorat qilish va undirishda qulaylik yaratishni nazarda tutadi.

Soliq ma'murchiligini takomillashtirish nafaqat soliqlar undiruvchanligi oshirish balki soliq to'lovchilar uchun soliq yukini kamaytirish orqali ular daromadini oshirishda ham muhim omil hisoblanadi.

Har bir tadbirkor borki biznes qilishidan asosiy maqsad kam xarajat qilib yuqori foyda erishish asosiy maqsadi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev (2022) ta'kidlaganidek: "Biz inson qadrini ulug'lashni e'lon qildik, xalqimizni rozi qilishga harakat qilyapmiz. Xalqimiz qachon rozi bo'ladi? Soliq kam bo'lib, daromadi oshsa" va davlat soliq xizmati organlarini soliq to'lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imidjini yaratish orqali xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan idoraga aylantirish, har bir xodim tomonidan "Soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish, soliq idoralarining nazorat funksiyalarini takomillashtirish yuzasidan jiddiy choralarni amalga oshirishimiz zarur." degan maqsadli vazifani aniq dasturlar asosida bajarish mamlakatimizda soliq ma'muriyatchiligi tizimini yanada rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlarida ko'rish mumkin.

Hozirda jahonda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish borasida qator ilmiy yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, soliqqa tortishning xalqaro standartlarini qo'llash, mazkur jarayonlarning monitoringini yuritish va raqamlashtirish orqali hisob va nazorat samaradorligini oshirish muhim tadqiqot yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi" (Farmon, 2018). Soliqqa tortishda soliq to'lovchilar bilan munosabatlar, shu jumladan, soliq ma'muriyatchiligi rivojlantirishda soliq to'lashdan bo'yin tovlashning yangi usullariga barham berish rivojlanmagan. Bundan tashqari, soliqqa tortishning xalqaro tajribalaridan kelib chiqib, O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligi mexanizmlarini takomillashtirishni maqbul darajasini aniqlash muammosini hal etish imkonini beryapti.

Adabiyotlar sharhi.

Krasniskiy (2023) "Soliq ma'muriyatchiligi" tushunchasini ikki tomondan ochib bergan. Birinchidan, bu boshqaruv organlari tizimi (qonun chiqaruvchi va ma'muriy soliq organlari). Ularning vazifalariga keyingi rejalashtirish davri uchun soliq konsepsiyasini o'tkazishni protsessual qo'llab-quvvatlash kiradi: ko'rib chiqish va muhokama qilish, qonun hujjatlarini tasdiqlash. Bundan tashqari, ular soliq byudjeti ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzishlari, ularni har tomonlama tahlil qilishlari kerak. Ikkinchidan, bu soliq harakatlari va aniq soliq texnikasini tartibga soluvchi, shuningdek, soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik choralarini belgilovchi normalar va qoidalar majmuidir.

Soliq ma'muriyatchiligi tushunchasiga Urmonov ham ta'rif bergan: Soliq ma'muriyatchiligi-soliqlar va soliq obyektlarini hisobga olish, soliq nazoratini amalga oshirish, soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni belgilash, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi va soliq munosabatlari ishtirokchilarining majburiyatlarini bajarilishini nazorat qilish bo'yicha davlat fiskal organlari faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi soliq munosabatlarini boshqarish tizimidir.

Ingliz faylasuf-iqtisodchisi Gobbs (n.d.) davlat o'z daromadlarini shakllantirish uchun fuqarolarga soliq solish huquqiga ega, lekin soliqlarni belgilashda me'yor va barcha qatlamga to'g'ri taqsimlashga e'tibor qaratish zarur, degan g'oyani taklif qilgan.

Mashhur iqtisodchi Rose (2006) o'zining "Soliq maslahati va fan" nomli maqolasida bo'lajak soliq islohoti sharoitida soliq maslahati xizmatlariga talab keskin oshadi, chunki yangi huquqiy normalar kuchga kirgunga qadar yoki undan keyin qandaydir qaror qabul qilish maqsadga muvofiqligi to'g'risida ko'pincha savol tug'iladi. Bunday maslahatdan soliq to'lovchining shaxsiy foydasi aniq bo'lishi g'oyasini ilgari surgan.

Savchuk (2013) fikricha, normativ-huquqiy hujjatlar qoidalariga muvofiq, xizmat ko'rsatish bo'lim faoliyatining asosi bo'lgan, xizmatning asosiy maqsadi AQSH soliq to'lovchilariga yuqori sifatli xizmatlar taqdim etishdir. Soliq majburiyatlarini aniqlash-tirish va amalga oshirishga yordam berish shuningdek, soliq qonunchiligini to'g'ri va adolatli qo'llash zarurligi bu orqali amalga oshirilishi mumkin. Shunday qilib, ichki daromadlar faoliyati xizmati, birinchi navbatda, ular bilan o'zaro munosabatlarga qaratilgan soliq to'lovchilar, ular bilan hamkorlikka bog'liq.

Iqtisod fanlari nomzodi Anisimovning (2023) "O'zgargan soliq ma'murchiligi: soliq to'lovchilarni raqamli muhitga qanday jalb qilish kerak" deb nomlangan maqolasida soliq ma'murchiligi faoliyat yuritishining ideal usuli- bu raqamli raqamli muhit orqali barcha masalalar, hatto hisobotlarni topshirish yoki jismoniy shaxslar va tashkilotlar uchun soliqlarni to'lashda onlayn aloqa kanallari bilan bog'liq muammolar ham hal qilinishi yuzasidan fikr bildirgan.

Shuningdek Anisimovning (2020) "Jahon tendensiyalari fonida Rossiyada raqamli soliq xizmatlarini rivojlantirish" nomli maqolasida soliq ma'muriyatchiligi raqamlashtirish jarayonlari nafaqat soliq organlari nazoratni amalga oshirayotgan soliq to'lovchilar faoliyati doirasida o'zaro hamkorlikni yaxshilashga, balki noqonuniy soliq organlarida hisobda turmasdan faoliyat yuritayotgan soliq to'lovchilarni hisobga olish uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi. Elektron xizmatlarning rivojlanishi bilan soliq organlari soliq to'lovchilarga ular uchun o'zaro munosabatlarning eng qulay variantini taklif qilib ularni qonuniy faoliyat yuritishga jalb qilishga yordam berishini ilgari surgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Soliq ma'murchiligida xalqaro tajribani ayniqsa rivojlangan mamlakatlar tajribasini qo'llash va ushbu amaliyotlarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirishda analiz, sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash usullari qo'llanildi. Xorijiy va mahalliy ilmiy-nazariy manbalar o'rganilib, ma'lumotlarning analitik tadqiqot usullari yordamida tegishli xulosa va takliflar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishi va soliq tizimini isloh qilish tadbirkorlar uchun qulay soliq muhitini yaratish uchun ko'plab qonun hujjatlari qabul qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda O'RQ-599-sonli Qonuni bilan yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi" tasdiqlandi. Kodeks 21 bo'lim 71 ta bob 480 ta moddadan iborat bo'lib, soliq qonunchiligida quyidagi yangiliklar joriy etildi:

Birinchidan, soliqlar va yig'imlarning soni va turlari, shuningdek, alohida soliq rejimlari optimallashtirildi. Soliqlarning 9 turi, katta bo'lmagan korxonalar uchun (1 mlrd. so'mgacha oboroti bilan) esa aylanmadan soliq ko'rinishidagi alohida soliq rejimi saqlanib qolindi.

Ikkinchidan, soliq organlarining ustuvor vazifalari sifatida soliq to'lovchilar bilan hamkorlik asosida ish yuritish prinsipi kiritildi. Ya'ni, soliq organlari soliq to'lovchilar bilan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini to'g'ri bajarish maqsadida hamkorlik qilishi shartligi belgilab qo'yildi.

Uchinchidan, qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarib berish tizimi tubdan o'zgartirildi. Soliq majburiyatlarini o'z vaqtida ijro etgan soliq to'lovchilarga 2020-yilning 1-iyulidan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hosil bo'lgan ortiqcha summani, ya'ni "manfiy" qoldiq summasini to'liqligicha qaytarish tartibi joriy etildi. Vaholanki, amaldagi Soliq kodeksiga asosan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha "manfiy" qoldiq faqatgina eksportyorlarga qaytarilib kelinmoqda edi.

To'rtinchidan, ortiqcha to'langan soliq summalarini o'z vaqtida qaytarilmaganligi yoki soliq organlari tomonidan asossiz undirilganligi uchun, Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi miqdorida byudjetdan soliq to'lovchilarga foiz to'lash belgilandi. Oldingi Soliq kodeksi bo'yicha ortiqcha olingan mablag'larning oylar davomida cho'zilib qaytarilishi tadbirkorlik subyektlarning faoliyatiga ziyon yetkazgan bo'lsa, endilikda soliq organi tadbirkorlarga ortiqcha to'lov summasini qaytarish bilan birga har bir kechiktirilgan kun uchun foiz to'lab beradi.

Beshinchidan, soliq qarzini debitorlaridan undirish tartibidan voz kechilmoqda. Ushbu tartibni bekor qilinishi soliq qarzini uchinchi shaxs hisobidan undirilishiga chek qo'yilib ular tomonidan o'zlarining mablag'larini mustaqil ravishda tasarruf etish imkonini beradi. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksida kollegial organlar (komissiyalar) ishtirokisiz soliqlarni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini taqdim etishning yangi tartibini joriy etish nazarda tutilmoqda.

Deputatlarga berilgan vakolatlarni yanada oshirgan holda, mahalliy byudjetga tushadigan soliqlar bo'yicha qarzdorligini kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash huquqini berish xalq deputatlari Kengashlari tomonidan taqdim etilishi belgilandi.

Soliq organlari tomonidan axborot texnologiyalari asosida amalga oshiriladigan soliq tekshiruvlarining yangicha tartibi joriy etilmoqda.

Endilikda soliq tekshiruvlarini o'tkazish uchun nomzodlar inson omilisiz, dastlab kamida 76 ta mezonlar asosida tahlil-tahlil (risk-analiz) dasturi yordamida tanlanadi.

Tahlil-tahlil asosida xo'jalik subyektlarini xavflilik darajasiga qarab 3 ta segmentga (yashil, sariq va qizil yo'laklarga) ajratadi hamda kamchiliklar aniqlangan taqdirda, soliq nazoratining yangi kameral tekshiruv, sayyor tekshiruv va soliq auditi o'tkaziladi.

Qonunchiligimizga kiritilgan mazkur o'zgartirishlar mamlakatimizda tadbirkorlikka yanada erkinliklar berish hamda ularning rivojlanishi hisobiga soliq tushumlarini ko'payishiga xizmat qiladi. Soliq qonunchiligidagi yangiliklar bilan tadbirkorlik subyektlari hamda keng jamoatchilikni yaqindan tanishishlari uchun juda foydadir.

Bundan tashqari o'tgan yillar mobaynida taqdim etilgan soliq hisobotlari 506 ta mezon asosida tahlil qilinib, hisobotlarda tafovut aniqlansa, soliq to'lovchilarda soliq tekshiruvini o'tkazmasdan, o'z xatolarini mustaqil ravishda bartaraf etish imkonini beruvchi "avtokameral" avtomatlashtirilgan tizimi joriy etildi.

Shuningdek, "Tahlika-tahlil" dasturida soliq to'lovchilarni 76 ta mezon bo'yicha segmentlash natijalariga ko'ra, inson omili ishtirokisiz tahlil asosida soliq xavfi darajasini aniqlash, xavf darajasiga qarab soliq nazorati uchun nomzodlar ro'yxatini shakllantirish tizimi yaratildi. Soliq organlarining ma'lumotlar bazasi xajmi 20 barobarga 24 terabaytdan 5 petabaytgacha oshirildi.

Interaktiv soliq xizmatlari soni 56 taga yetkazildi.

Bundan tashqari yangi tahrirdagi soliq kodeksiga asosan quyi turuvchi soliq organlari tomonidan soliq tekshiruvlari natijasida qabul qilingan qarorlar soliq to'lovchi tomonidan e'tiroz bildirilib ariza bilan murojaat qilingan taqdirda yuqori turuvchi soliq organi tomonidan ko'rib chiqilishi belgilandi. Bunda asosiy maqsad soliq to'lovchining ortiqcha vaqt va iqtisodiy resurslarini tejash hisoblanadi.

2024-yil davomida soliq qo'mitasiga 2025-yil 945,9 mlrd so'mlik 225 ta soliq nizosiga oid shikoyat kelib tushgan. Arizalarning 143 tasi soliq auditi bo'yicha — 651,1 mlrd so'mlik va 82 tasi sayyor soliq tekshiruvi bo'yicha — 294,8 mlrd so'mni tashkil qilgan.

Ushbu arizalar qo'mita tomonidan ko'rib chiqilib 119,1 mlrd so'mlik 28 ta murojaatda (shundan, 21 tasi 95,1 mlrd so'mlik qisman) soliq to'lovchining pozitsiyasi qanoatlantirilgan bo'lsa 717,2 mlrd so'mlik 184 ta murojaat bo'yicha soliq xizmati organlari qarorlari o'z kuchida qoldirildi va bu haqda belgilangan tartibda tushuntirishlar berilgan.

Shuningdek Soliq kodeksining 100-moddasiga asosan qarzdorligi mavjud soliq to'lovchilar uchun hech qanday penya va foizlarsiz mavjud soliq qarzdorliklarini bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati yaratildi.

1-jadval

Quyida 2023-2024-yillar davomida Respublika miqyosida Soliqlarni bo'lib-bo'lib yoki kechiktirib to'lash imkoniyati berilgan soliq to'lovchilar
mlrd.so'm

№	Hudud nomi	2023-yilda		2024-yilda	
		soni	summasi	soni	summasi
	Jami	1 263	700,8	100	138,2
1	YSTBHASI	28	189,9	12	34,4
2	Qoraqolpog'iston Res RRRRRes	230	22,7	4	14,2
3	Andijon vil	81	6,1	1	1,1
4	Buxoro vil	70	35,8	10	9,7
5	Jizzax vil	51	16,8	2	2,9
6	Qashqadaryo vil	68	30,1	7	6,4
7	Navoiy vil	35	15,1	3	1,0
8	Namangan vil	61	7,6	2	1,9
9	Samarqand vil	58	14	2	1,0
10	Surxondaryo vil	153	39,8	9	10,8
11	Sirdaryo vil	36	4,4	2	0,5
12	Toshkent vil	115	183,6	11	8,4
13	Farg'ona vil	62	9,7	7	6,7
14	Xorazm vil	74	17,2	2	1,5
15	Toshkent shah	141	108	26	37,7

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlar natijasida 2023-yilda soliq qarzi mavjud bo'lgan 1 263 ta soliq to'lovchilarga 700,8 mlrd so'mlik soliq qarzlarini bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati yaratilgan bo'lsa 2024-yil shunday imkoniyat berilgan soliq to'lovchilar 100 tani tashkil qilib 138,2 mlrd.so'mlik soliq qarzlariga bo'lib to'lash imkoniyati berilgan. Ushbu imkoniyatlar soliq qarzi hisobiga o'z tadbirkorlik faoliyatini yetarli darajada tashkil eta olmayotgan tadbirkorlik subyektlarga yana bir bor imkon

berish deb ayta olamiz va soliq qarzini kechiktirib to'lash hisobiga tadbirkorlik subyekti o'z aylanma mablag'larini ko'paytirish imkonini beradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan soliq islohotlari tufayli yildan yilga soliq tushumlari bazasi kengayib bormoqda bunga asosan yurtimizdagi tadbirkorlarga qonunchilik asosida berilayotgan imkoniyatlar hamda ched davlatlar investorlarini jalb qilish maqsadida ularga qulay va jozibador soliq rejimi joriy qilinganligidadir.

O'tgan yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasi o'laroq 2021-yilda davlat byudjetiga 127,8 trln.so'mni, 2022-yilda 148,4 trln.so'mni, 2023-yilda 165,9 trln.so'mni va 2024-yil yakunlari bilan 199,5 trln.so'm soliq tushumlari byudjetga tushishi ta'minlandi.

Shuningdek soliq ma'murchiligida amalga oshirilayotgan islohotlar va tadbirkorlik subyektlariga ham ko'plab imtiyozlar berib kelinmoqda. Jumladan, 2022-yil davomida 1 080,3 mingta holatda 87,7 trln.so'mlik soliq imtiyozlridan foydalangan bo'lsa 2023-yilda ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 750,2 mingtaga ko'payib 1 830,5 mingtani tashkil qilgan va foydalanilgan imtiyozlar miqdori 66,1 trln.so'mni tashkil qilgan ushbu ko'rsatkichlar 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 595,2 mingtaga ko'payib 2 425,7 mingtani tashkil qilgan bo'lsa foydalanilgan imtiyozlar miqdori 251,4 trln.so'mni tashkil qilgan.

Prezidentimiz tabirlari bilan aytganda soliq organlari soliq to'lovchilarni nazorat qiluvchi emas balki ularning hamkori sifatida ish tashkil etishlari zarurligini ko'rsatib o'tganlar.

Soliq tizimida soliq to'lovchilar faoliyatiga ko'maklashishini yanada samaraliroq tashkil etish maqsadida soliq to'lovchilar bilan mahallabay va korxonabay tizimida ishlash bo'limlari tashkil etildi.

2024-yilda jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk solig'i 1 370.4 mlrd.so'mga (31%) oshishga erishildi, 64,5 mingta vaqtincha moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan tadbirkorlik subyektlarining faoliyati tiklandi, 134,8 mingta yangidan tadbirkorlik subyektlari tashkil etildi, 8,7 mingta o'zini o'zi band qilganlar hamda 947 nafar YATTning faoliyati yuridik shaxs sifatida yiriklashtirildi, 4013 ta bo'sh turgan obyekt ishga tushirilishi hisobiga 9,4 ming nafar aholi ish bilan ta'minlandi, 2024-yil boshiga nisbatan mahallalar kesimida kichik tadbirkorlar hisobiga 41,5 mingta ishchi soni oshishiga erishildi.

Korxonabay tizimi joriy etilishi hisobiga 2024-yilda hisobot davrida 10 mln so'm dan ko'p bo'lgan korxonalar soni 25,4 mingtaga oshdi, Rentabelligi 1 foizdan ko'p bo'lgan korxonalar soni 27,7 mingtaga oshishiga erishilganligi ham soliq tizimida so'ngi yillarda amalga oshirilgan tub islohotlar samarasi o'z samarasini bermoqda.

Bundan tashqari 2023-yilda soliq ma'murchiligini isloh qilish yuzasidan 32 ta qonun, qaror, farmon va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Tadbirkorlik subyektlarining 2023-yil 1-yanvarga nisbatan 1-fevral holatiga oshgan soliq qarzini 2023-yil 1-martdan 1-iyulga qadar foizlarsiz, qo'shimcha shartlar quymasdan va ta'minot talab etmasdan teng ulushlarda bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat berildi (Qaror, 2023).

Qoraqolpog'iston Respublikasi barcha tumanlarida joylashga va mazkur hududda faoliyatini amalga oshirayotgan Tadbirkorlik subyektlari (yirik soliq to'lovchilar, doimiy muassasalar, byudjet tashkilotlari va davlat korxonalari, davlat ulushi 50% va undan ortiq bo'lgan shaxslar mustasno) 2023-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar bo'lgan davrda (RQ-8456 2023) ga asosan Foyda solig'i, aylanmadan olinadigan soliq, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va yuridik shaxslar uchun yer solig'i bo'yicha belgilan soliq stavkasi 50% foizga kamaytirish imkoni berildi. Ushbu qonun bilan ushbu soliq to'lovchilar uchun ijtimoiy soliq stavkasi 1% va YATTLar ijtimoiy soliqni yiliga bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida to'lash kabi imtiyozlar berildi.

Shuningdek so'ngi yillarda sohani raqamlashtirish yuzasidan ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda ushbu yo'nalishdagi eng asosiy o'zgarishlardan biri bu hisobvaraqa fakturalarning elektronlashtirilgan tarzda shakllantirilishi bo'ldi deb bemalol ayta olamiz. Ushbu o'zgarishlar albatta soliq bazasini kengayishiga olib keldi 2024-yilda rasmiylashtirilgan elektron

hisobvaraqa-fakturalar tovar aylanmasi 2 041,6 trln so'm yoki 2023-yilga nisbatan 367,1 so'mga (22%) ga ortgan bo'lsa, QQS summasi 169,5 trln so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 32,0 trln so'mga (24%) oshgan.

Sohadagi yana bir muhim o'zgarishlardan biri bu nazorat kassa mashinalarini onlayn nazorat qilishi mexanizmi yaratilganligi Ro'yxatga olingan ONKT soni o'tgan yilga nisbatan 13 022 taga oshib 224 548 donani tashkil qilgan bo'lsa onlayn nazorat kassa texnikalari orqali urilgan cheklar soni 173,8 mln.taga o'sib ushbu ko'rsatkich 2024-yilda 1051,6 mln donani tashkil qilgan bo'lsa cheklar summasi 261,2 trln.so'mni tashkil qilib o'tgan 2023-yilga nisbatan o'sish surati 20%ni tashkil qilgan yoki 31,5 trln.so'mga ko'paygani ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek soliq tizimida yaratilgan "E-IJARA" interaktiv xizmati orqali 322 490 ta ijara obyekti lari bo'yicha ro'yxatga olingan 606 046 ta shartnomalarning umumiy summasi 11,9 trln.so'mni va hisoblangan soliqlar summasi 799,5 mlrd so'mni tashkil etdi. Ushbu interaktiv xizmat joriy etilishi natijasida soliq bazasi kengayib ijarani ro'yxatdan o'tkazish soliq to'lovchilar uchun qulaylashtirildi.

Shuningdek sohada tamaki va al'ternativ tamaki mahsulotlari, alkohol mahsulotlari, pivo, maishiy texnika mahsulotlari, dori vositalari va tibbiy buyumlar, suv va salqin ichimliklar uchun raqamli markirovkalash tizim joriy etilishi natijasida 2024-yil 31-dekabr xolatiga tizimida ro'yxatdan o'tgan 3,5 ming ishtirokchi tomonidan 83,6 mingdona mahsulot turi raqamli markirovka katalogiga kiritilib, qariyb 7,4 mlrd dona markirovkalangan mahsulotlar ishlab chiqildi. Ushbu tizim joriy etilishining asosiy maqsadlaridan biri bu ishlab chiqaruvchi (importyor)dan to tovarlarni yakuniy iste'mol qiluvchigacha bo'lgan jarayonda zanjir uzviyligini ta'minlab xufiyona iqtisodiyotga chek qo'yish hisoblanadi.

2-jadval

Raqamli markirovka qilinishi lozim bo'lgan mahsulotlarni markirovkalash majburiyati yuklatilgan soliq to'lovchilar soni to'g'risida

№	Yil	Ishlab chiqaruvchilar soni	Importyorlar soni	Ulgurji savdo soni	Chakana savdo soni
1	2020	0	0	0	0
2	2021	100	56	106	2 073
3	2022	226	429	1 021	10 619
4	2023	450	1 487	1 876	35 663
5	2024	687	2 439	2 250	82 085

Yuqorida rasmdan ko'rishimiz mumkinki yillar kesimida ko'radigan bo'lsak markirovkalanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi va import qiluvchilar soni yildan yilga mahsulotlar turiga mutanosib ravishda ortib bormoqda.

2021-yilda raqamli markirovkalanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchilar soni 100 tani tashkil qilgan bo'lsa ushbu ko'rsatkich 2024-yakuniga kelib 687 tani tashkil qilib 2021-yilga nisbatan 587 taga yoki 687%ga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Xuddi shunday raqamli markirovkalanadigan tovarlarni import qiluvchilar soni 2021-yilda 56 tani tashkil qilgan bo'lsa 2024-yil yakuniga kelib markirovkalanadigan tovarlarni import qiluvchilar soni 2 439 taga yetdi yoki 2021-yilga nisbatan 2 383 taga ortganligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek 2021-yil holatiga raqamli markirovkalanadigan tovarlar ulgurji savdosi bilan shug'ullanadigan tadbirkorlik subyektlari soni 106 tani tashkil qilgan bo'lsa bunday subyektlar 2024-yilga kelib 2 144 taga oshishi kuzatildi yoki 2 250 taga yetib 2021-yilga nisbatan 2 122,6%ga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Markirovkalanadigan tovarlar chakana savdosi bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari 2021-yilda 2 073 tani tashkil qilgan bo'lsa ushbu ko'rsatkich ham oxirgi 4 yil mobaynida sezilarli darajada oshib markirovkalanadigan tovarlar chakana savdosi bilan

shug'ullanuvchilar soni 2024-yilga kelib 82 085 taga yetdi yoki 2021-yilga nisbatan 80 012taga oshishi kuzatildi.

3-jadval

2021-2026-yillar davomida markirovkalanishi lozim bo'lgan tovarlar

№	Soni	Markirovka qilinishi lozim bo'lgan mahsulotlar											
		Yillar kesimida											
		2021		2022		2023		2024		2025		2026	
		soni	turi	soni	turi	soni	turi	soni	turi	soni	turi	soni	turi
1	Sigaretlar	1	1										
2	Alkogol mahsulotlari (pivo mahsulotlaridan tashqari)	1	5										
3	Pivo mahsulotlari	1	1										
4	Boshqa turdagi chekiladigan tamaki mahsulotlari, chekilmaydigan tamaki mahsulotlari, nikotinli tamakisiz snyus, tarkibida nikotin mavjud suyuqliklar va nikotinli elektron sigaretalar.			4	17								
5	Maishiy texnika (Changyutgich, Kir yuvish mashinasi, Sovutkichlar, muzlatkichlar, Televizor va monitor, Maishiy gaz pechi, Oshxona dudbo'roni, Duxovka va pechka, Mikroto'qinli pech, dazmol, suv isitgich, Suv isitish qozonlari, Konditsioner, O'rnatilgan elektr motorli maishiy texnika (sok chiqazgich, blender, mikser, kofe yanchgich, go'sht maydalagich), Barcha turdagi lampalar)			12	60								
6	Dori vositalari va tibbiy buyumlar			1	2								
7	Suv va salqin ichimliklar							1	3				
8	Mineral o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilish uchun foydalaniladigan kimyoviy vositalari											1	69

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-noyabrdagi "Ayrim turdagi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimini joriy etish to'g'risida" 737-son qaroriga asosan 2021-2026-yillarda identifikatsiya vositalari bilan majburiy raqamli markirovkalash talabi joriy qilinadigan mahsulotlar ro'yxati qarorning 1-ilovasiga asosan belgilandi.

Ushbu qarorga asosan 2021-yilda sigaret, Alkogol mahsulotlari (pivo mahsulotlaridan tashqari), pivo mahsulotlari, 2022-yilda Boshqa turdagi chekiladigan tamaki mahsulotlari, chekilmaydigan tamaki mahsulotlari, nikotinli tamakisiz snyus, tarkibida nikotin mavjud suyuqliklar va nikotinli elektron sigaretalar, Maishiy texnika (Changyutgich, Kir yuvish mashinasi, Sovutkichlar, muzlatkichlar, Televizor va monitor, Maishiy gaz pechi, Oshxona dudbo'roni, Duxovka va pechka, Mikroto'qinli pech, dazmol, suv isitgich, Suv isitish qozonlari, Konditsioner, O'rnatilgan elektr motorli maishiy texnika (sok chiqazgich, blender, mikser, kofe yanchgich, go'sht maydalagich), Barcha turdagi lampalar), Dori vositalari va tibbiy buyumlar, 2024-yilda Suv va salqin ichimliklar va 2026-yilda Mineral o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilish uchun foydalaniladigan kimyoviy vositalari majburiy raqamli markirovkalanishi belgilandi.

Bugungi kunda yuqorida qayd etilgan mahsulot turlariga markirovka tizimi joriy etilib ushbu mahsulotlarning ishlab chiqaruvchi (import qiluvchi) omboridan iste'molchilarga yetib borgungacha bo'lgan jarayoni tizimda ishlab chiqilgan dasturiy mahsullar orqali to'liq nazorat qilinmoqda.

Ushbu mahsulotlarning "harakat zanjirini" kuzatish orqali 2023-yilda ishlab chiqarish (import qilish) hajmlari tamaki mahsulotlarida – 8,1 foizga (soliq tushumlari 4,6 foizga), pivoda – 5,3 foizga (soliq 15,9 foizga), maishiy texnikada – 4 barobarga (soliq 14,4 foizga), dori vositalarida – 8 barobarga (soliq 24,6 foizga) o'sishga erishildi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasini ayniqsa rivojlangan davlatlar soliq ma'murchiligida samarali natijalarga erishilgan va soliq to'lovchilar uchun ham noqulayliklar keltirib

chiqarmaydigan biznes muhitini uchun shaffoflikni ta'minlaydigan hamda Respublikamiz uchun mos keladigan taraflarini o'rgangan holda joriy qilish tizm ruvoji uchun xizmat qiladi.

Misol uchun rivojlangan davlatlardan biri Avstraliyada soliq tizimini ko'radigan bo'lsak jismoniy shaxslar uchun quyidagi soliq turlari mavjud:

1. Daromad solig'i (Income Tax) — Jismoniy shaxslar yillik daromadlari (maosh, tadbirkorlik daromadi, investitsiya foydasi) uchun to'laydi.

2. Goods and Services Tax (GST) — Odatda jismoniy shaxslar uchun to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilmaydi, lekin biznes sohasida bo'lganlar uchun majburiy.

3. Capital Gains Tax (CGT) — Aktivlar (masalan, ko'chmas mulk, aksiyalar) sotishdan kelgan foydaga qo'llaniladi.

4. Medicare Levy — Jismoniy shaxslar uchun davlat tibbiyot tizimiga solinadigan qo'shimcha soliq, odatda daromadning 2% atrofida.

Yuridik shaxslar uchun quyidagi soliq turlari joriy qilingan:

1. Korporatsiya solig'i (Company Tax) — Yuridik shaxslar (kompaniyalar) daromadlari bo'yicha yagona stavkada to'laydi (odatda 30% yoki kichik biznes uchun kamaytirilgan stavka).

2. Goods and Services Tax (GST) — Barcha bizneslar uchun majburiy 10% qo'shilgan qiymat solig'i.

3. Payroll Tax — Ish beruvchilar tomonidan xodimlarning maoshlari bo'yicha to'lanadigan soliq, shtatga qarab stavkalar farq qiladi.

4. Fringe Benefits Tax (FBT) — Xodimlarga berilgan qo'shimcha imtiyozlar uchun to'lanadigan soliq (mashina, uy, ta'lim va h.k.).

5. Capital Gains Tax (CGT) — Kompaniyalar ham aktivlarni sotishdan olingan foyda uchun soliq to'laydi.

Avstraliyada soliq nazoratining turli shakllari (formalari) mavjud bo'lib, ular soliq to'lovchining faoliyati, xavf darajasi va qonunlarga rioya qilish holatiga qarab qo'llaniladi. Bu shakllar qo'llanish darajasi, murakkablik va davomiylik jihatidan farq qiladi:

- *Ma'lumotlar solishtirish (Data Matching)* — Australian Taxation Office (ATO) turli manbalardan kelgan ma'lumotlarni (banklar, ish beruvchilar, moliyaviy tashkilotlar) soliq deklaratsiyasi bilan taqqoslaydi.

- *Avtomatlashtirilgan tekshiruv (Automated Review)* — Kompyuter tizimi orqali avtomatik anomaliya yoki xatoliklar aniqlanadi, keyin soliq to'lovchiga avtomatik xabarnoma yuboriladi.

- *Maslahat va eslatmalar (Advisory & Reminder Checks)* — Xavf past bo'lgan hollarda ATO soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlarini to'g'ri bajarish uchun tavsiyalar yoki ogohlantirishlar yuboradi.

- *Risk tahlili asosidagi nazorat (Risk Review)* — Risk tahlili orqali shubhali faoliyat aniqlansa, qo'shimcha ma'lumot so'ralib, tekshiruv uchun tayyorgarlik ko'riladi.

- *Formal audit (Formal Audit)* — Chuqur tekshiruv bo'lib, soliq to'lovchining moliyaviy hisobotlari, buxgalteriya yozuvlari, shartnomalari va faoliyati sinchiklab tekshiriladi.

- *Fokuslangan (maqsadli) tekshiruv (Targeted Compliance Program)* — Aniq bir sohada yoki guruhda umumiy soliq kamchiliklari aniqlansa, bir nechta subyektlar to'plamli tekshiriladi.

- *Sohaviy tekshiruvlar (Industry Campaigns)* — Mahsus sohalar (masalan, qurilish, restoranlar, onlayn xizmatlar)da soliq qonunlariga rioya etish darajasi tekshiriladi.

- *Observatsiya va monitoring (Ongoing Monitoring)* — Katta korxona yoki ko'p xavfli subyektlar doimiy nazoratda saqlanadi, yillar davomida ma'lumotlar tahlil qilinadi.

Soliq tekshiruvlarining 3 ta shakli mavjud:


Standart tekshiruvlar: Kichik xatolar yoki nomuvofiqliklar bo'lgan holatlarda avtomatlashtirilgan tartibda amalga oshiriladi.

Tahlil asosidagi tekshiruvlar: Ko'proq kompleks va murakkab holatlarda, moliyaviy tahlil va tergov olib boriladi.

Intensiv tekshiruvlar (Audit): Tuzilishlar va katta bizneslarda keng ko'lamdagi tekshiruvlar o'tkaziladi.

Hozirgi kunda soliq ma'muriyatchiligi yildan yilga rivojlanishi tufayli ko'plab rivojlangan davlatlar soliq tekshiruvlarini avtomatlashtirishga va raqamlashtirishga katta e'tibor qaratishmoqda. Bu ularga tezkorlik, samaradorlik va yuqori xavfli holatlarga diqqat qaratish imkonini beradi.

Hozirda Avstraliya, AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Yaponiya, Singapur va Yangi Zelandiya davlatlarida avtomatlashtirilgan audit tizimi joriy qilingan bo'lib ushbu davlatlarda samarali foydalanilib kelinmoqda.



1-rasm. 2024-yil yanvar-dekabr oylarida o'tkazilgan soliq auditlari va ularning natijalari

Yuqorida keltirilgan rasmda ko'rishimiz mumkinki soliq auditlari o'tkazilishi 2024-yilda atiga jami tadbirkorlik subyektlarining 0,4% ulishini tashkil qilgan. Buning asosiy sabablaridan biri inson resursi yetishmasligidir. Ushbularni inobatga olib soliq auditini ham zamon talablariga moslashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

Respublikamizda bugungi kunda har bir sohani rivojlantirish yo'lida ko'plab amaliy ishlar bilan bir qatorda ko'plab qonun hujjatlariga ham o'zgartirishlar kiritilib kelinmoqda.

Ayniqsa bugungi kunda respublikamizda tadbirkorlarni qo'llab quvvatlar qulay tadbirkorlik muhitini yaratishga doir ko'plab chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish bilan Soliq ma'murchiligini mexanizmini to'g'ri tashkil etish muhim hisoblanadi biroq yangi mexanizmlarini joriy qilishda nafaqat davlat siyosatini yuritish balki soliq to'lovchilar uchun muhim yo'nalishlardan biri bo'lgan tekshiruv o'tkazishni takomillashtirish, ayniqsa soliq auditini o'tkazish samaradorligini oshirish bilan birga soliq to'lovchilar uchun avtomatlashtirilgan tizimlar orqali qulaylashtirish muhim o'rin tutadi.

Avtomatlashtirilgan audit tekshiruv joriy qilinishidan asosiy maqsad soliq organlarida inson resursi sarfini tejash ushbu resurslarni soliq xavfi o'ta yuqori va soliqdan qochish sxemalari aniqlangan soliq to'lovchilar nazoratiga yo'naltirishga imkon yaratadi.

Bundan tashqari ushbu tekshiruv shaklining joriy qilinishi soliq auditini o'tkazilayotgan subyekt uchun ham qulay bo'lib bugungi kunda Respublikamizda amaldagi qonunchilikka ko'ra soliq auditini o'tkazish muddati 30 ish kuni qilib belgilangan bo'lib tekshiruv muddati ba'zi 2 oyda – 6 oygacha uzaytirilishi mumkinligi belgilan. Bu holat tabiiyki soliq to'lovchilarga noqulaylik keltirib chiqarishi mumkin.

Yuqoridagilarga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki soliq tekshiruvlarini to'g'ri yo'lga qo'yish nafaqat davlat budjeti uchun balki biznes muhiti rivoji uchun ham juda ahamiyatlidir shu sababli soliq tekshiruvlarini yanada takomillashtirishga yordam beradigan ba'zi takliflar:

Birinchidan: Respublikada avtomatlashtirilgan soliq auditini o'tkazish tartibini joriy qilish.

Ikkinchidan: Soliq to'lovchilarning 100%lik aniqlikdagi xatolari aniqlash orqali avtomatlashtirilgan soliq auditini uchun xavf mezonlarini ishlab chiqish.

Uchinchida: Markirovkalash tizimi tovarlar harakati zanjirini to'liq nazorat qilish maqsadida joriy qilingan bolsada hozigi kunda faqat importyor va ishlab chiqaruvchilar uchungina markirovkalash qoidalarini buzish turlari belgilangan shu sababli chakana savdo tashkilotlari uchun ham aniq qoidalar belgilash yakuniy istemolchigacha bo'lgan zanjirni to'liqligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Anisimova A.A. (2023) "nota bene" "jurnali Nalogovoe administrirovanie v izmenivsheysya realnosti: kak vovlech nalogoplateluyikov v sifrovuyu sredu" maqolasi.

Anisimova A.A. (2020) "nota bene" "jurnali Nalogovoe administrirovanie v izmenivsheysya realnosti: kak vovlech nalogoplateluyikov v sifrovuyu sredu" maqolasi.

Farmon (2018) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2018-y., 06/18/5468/1420-son.

Krasniskiy V.A. (2023) Nalogovoye administrirovaniye. <https://wiseeconomist.ru/poleznoe/29668-nalogovoeadministrirovanie>.

Mirziyoyev Sh.M. (2022) Soliq yukini kamaytirish va sohani raqamlashtirish vaziflari belgilandi. Toshkent. // Xalq so'zi. 2022-yil 16-mart.

Nutq (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqi. Toshkent. // Xalq so'zi. 2022-yil 20-avgust.

Rose G. (2006) Nalogovoe konsultirovanie i nauka. Sbornik publikatsii. – Berlin: Izd-vo "Erich Schmidt Verlag".

Savchuk V.A. (2013). Svitovo'i dosvid administruvannia podatktiv [Soliq ma'muriyatchiligining jahon tajribasi].

Tomas Gobbs (n.d.) "Levifian". <https://ru.wikipedia.org/wiki>.

Urmonov J.J. (2018) Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari. Diss. Avtoreferati.